O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

“TASDIQLAYMAN”
B.A.Xolikov
2025-yil “ 5 ”
Ro‘yxatga olindi № 61010100-1.05
2025-yil “09 08”

IQTISODIYOT NAZARIYASI FANINING O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi:	1000000	- Xizmatlar
Ta’lim sohasi:	1010000	- Xizmat ko‘rsatish sohasi
Ta’lim yo‘nalishlari:	61010100	- Turizm va mehmondo‘stlik (masofaviy)

Samarqand – 2025

Fan/modul kodi	O‘quv yili	Semestr	ECTS - Kreditlar
TI1106	2025-2026	1	6
Fan/modul turi	**Ta’lim tili**		**Haftadagi dars soatlari**
Majburiy	O‘zbek		5

	Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)
1	**Turizm iqtisodiyoti**	72	108	180

2

I.Fanning mazmuni

Fanni o‘qitishdan maqsad - talabalarga iqtisodiy bilimlarning nazariy asoslarini, iqtisodiyotning asosiy tushunchalari va kategoriyalarini, iqtisodiy qonunlar va tamoyillarini o‘rgatish hamda ularni amalda tatbiq etish ko‘nikmasini hosil etish.

Fanning vazifalari – talabalarni nazariy bilimlar, iqtisodiy mushohada qilish usullari bilan qurollantirish, iqtisodiy hodisa va jarayonlar mazmunini mantiqiy mushohada qilish uchun zarur bo‘lgan uslubiy yondashuvlarni egallashga ko‘maklashish, ular ongiga milliy istiqlol g‘oyasini va milliy mafkuraning asosiy qoidalarini singdirish, iqtisodiyotni modernizatsiyalash, erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish asosida hozirgi zamon rivojlangan bozor iqtisodiyotini vujudga keltirishning dolzarb muammolarini ochib berish, iqtisodiyot va iqtisodiy munosabatlar to‘g‘risida amaliy ko‘nikmalarni hosil qilish.

II. Asosiy qism

II.I. Fan tarkibiga quyidagi ma’ruza mavzulari kiradi:

O‘qish moduli:

1-mavzu:“Iqtisodiyot nazariyasi” fanining predmeti va bilish usullari Iqtisodiyot tushunchasi va uning qamrov jihatidan turlari. Iqtisodiy faoliyatning mazmuni. Takror ishlab chiqarish fazalari: ishlab chiqarish, taqsimot, ayirboshlash, iste’mol.Iqtisodiyotga oid bilimlarning shakllanishi va rivojlanishi.Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti to‘g‘risida turlicha yondashuvlar. Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti. Iqtisodiy hodisa va jarayonlar.Iqtisodiyot nazariyasi fanining vazifalari. Iqtisodiyot nazariyasining boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi.Iqtisodiy qonunlar va kategoriyalar. Iqtisodiy qonunlarning turkumlanishi.

2-mazvu:Ishlab chiqarish jarayoni va uning natijalari

Ishlab chiqarish omillari va ularning turkumlanishiga turlicha yondashuvlar. Ishlab chiqarish omillarining o‘zaro bog‘liqligi va bir-birining

o‘rnini bosishi.

Ishlab chiqarish jarayonining mazmuni va uning iqtisodiy asoslari. Ishlab chiqarishning tarkibiy tuzilishi.Ishlab chiqarishning umumiy va pirovard natijalari. Yalpi ijtimoiy mahsulot.Takroriy hisob. Oraliq mahsulot, pirovard mahsulot, qo‘shilgan mahsulot, sof mahsulot. Zaruriy va qo‘shimcha mahsulot.Ishlab chiqarish imkoniyatlari tushunchasi. To‘la bandlik. Ishlab chiqarish imkoniyatlari chegarasi.Ishlab chiqarish samaradorligi. Vaqtni tejash qonuni. Mehnat unumdorligi va unga ta’sir qiluvchi omillar. Samaradorlikni belgilovchi ko‘rsatkichlar tizimi.

3-mavzu:Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar va mulkchilik munosabatlari

Ijtimoiy-iqtisodiyot taraqqiyot bosqichlarini bilishga turli xil yondashuvlar: tarixiy-formatsion, madaniylashish (sivilizatsiya) darajasi, texnika va texnologik darajasi, iqtisodiy tizimlar o‘zgarishi jihatidan yondashuv.Iqtisodiy tizim tushunchasi. Iqtisodiy tizim modellari: an’anaviy iqtisodiyot, ma’muriy-buyruqbozlik iqtisodiyoti, bozor iqtisodiyoti. Bozor iqtisodiyotining bosqichlari: erkin raqobatga asoslangan va hozirgi zamon bozor iqtisodiyoti.Mulkchilik munosabatlarining iqtisodiy mazmuni: egalik qilish, foydalanish va tasarruf qilish. Mulk ob’ekti va sub’ekti. Mulkchilikning iqtisodiy va huquqiy jihatlari.

4-mavzu:Tovar-pul munosabatlari rivojlanishi bozor iqtisodiyoti shakllanishi va amal qilishining asosi

Ijtimoiy xo‘jalik shakllari. Natural va tovar ishlab chiqarishning belgilari va farqlari. Tovar ishlab chiqarishning vujudga kelishi va rivojlanishi sabablari.

Tovar va uning xususiyatlari. Tovarning nafliligi va ayirboshlanish qobiliyati (qiymati). Tovar qiymatining miqdori.Qiymatning mehnat nazariyasi. Qiymat qonuni. Tovar qiymati va narxining o‘zaro farqlanishi shart-sharoitlari.Pulning kelib chiqishi va mazmuni. Pulning ratsionalistik va evolyutsion konsepsiyalari. Qiymat shakllari. Pul to‘g‘risidagi metallistik, nominalistik va miqdoriy nazariyalar. Pulning asosiy vazifalari: qiymat o‘lchovi, muomala vositasi, jamg‘arish vositasi, to‘lov vositasi.

5-mavzu:Bozor iqtisodiyotining mazmuni va amal qilinishi

Bozor iqtisodiyotining mazmuni va uning rivojlanishi. Bozor iqtisodiyotining sub’ektlari: uy xo‘jaliklari, tadbirkorlik sektori, davlat sektori va bank. Bozor iqtisodiyotining asosiy belgilari. Bozor tizimining o‘z-o‘zini tartibga soluvchi mexanizmi. Klassik va hozirgi zamon bozor iqtisodiyoti, ularning umumiy tomonlari va farqlari. Zamonaviy bozor xo‘jaligi modellari.Bozor iqtisodiyoti sharoitida doimiy muammolarni hal qilish va resurslardan samarali foydalanish yo‘llari.Bozor iqtisodiyotining afzalliklari. Resurslarni taqsimlashning samaradorligi.“Bozor” va “bozor iqtisodiyoti”

tushunchalarining o‘zaro farqlanishi. Bozorning mazmuni va asosiy belgilari. Bozor mexanizmi. Bozorning ob’ektlari va sub’ektlari. Bozorning vazifalari. Bozorning turkumlanishi. Resurslar, mahsulotlar va daromadlarning doiraviy aylanish diagrammasi.

6-mavzu:Bozor iqtisodiyotiga o‘tish davri va uning O‘zbekistondagi xususiyatlari

Bozoriqtisodiyotigao‘tishdavribarchamamlakatlarga xos umumiy jarayoni, Bozor iqtisodiyotiga o‘tish shakli va xususiyatlari, Bozor iqtisodiyotiga o‘tish bosqichlari va ularning xususiyatlari, Mamlakatni modernizatsiyalash jarayoni rivojlantirishning ustivor yo‘nalishlari,

7-mavzu:Talab va taklif nazariyasi. Bozor muvozanati

Talab tushunchasi. Individual talab va bozor talabi. Talab qonuni. Giffen samarasi. Talab egri chizig‘i. Talab miqdoriga ta’sir qiluvchi omillar: iste’molchi didi, bozordagi iste’molchilar soni, ularning pul daromadi, o‘rnini bosuvchi tovarlar narxi, kelajakda narx va daromadlarning o‘zgarishi ehtimoli. Oliy va past toifali tovarlar. Engel qonuni. Engel egri chizig‘i.

Taklif tushunchasi. Taklif qonuni. Taklif egri chizig‘i. Taklif miqdoriga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar: resurslar narxi, ishlab chiqarish texnologiyasi, soliqlar va subsidiyalar, boshqa tovarlar narxi, narx o‘zgarishining kutilishi, ishlab chiqaruvchilar soni. Iqtisodiy resurslarga talab va taklifning xususiyatlari.

8-mavzu:Raqobat va monopoliya

Raqobatning mohiyati va obeyktiv asoslari. Raqobat mazmuniga turli tomondan yondashuv. Raqobatning vazifalari. Raqobatning turlari: tarmoq ichidagi va tarmoqlararo raqobat. Raqobat shakllari: sof raqobat, monopolistik raqobat, oligopoliya va sof monopoliya.Monopoliyaning mohiyati va uning vujudga kelishi sabablari. Ishlab chiqarish va kapitalning to‘planishi va markazlashuvi. Monopoliyalarning turlari: sofmonopoliya, oligopoliya, monopsoniya.Tabiiy monopoliyalar. Legalva sun’iy monopoliyalar.Lerner koeffitsenti.O‘zbekistonda raqobat muhitining kuchaytirish borasidagi chora-tadbirlar. Monopoliyaga qarshi qonunchilikning shakllanishi.

9-mavzu: Narxning mohiyati va uni shakllanish xususiyatlari

Narxning mazmuni va ob'ektiv asoslari, Narxning turlari: ulgurji va chakana, Narxlar tashkil topishining bozor mexanizmi, Respublikada narx siyosati uni amalga oshirish xususiyatlari

10-mavzu: Tadbirkorlik faoliyati. Tadbirkorlik kapitali va uning aylanishi

Tadbirkorlik faoliyati nazariyasining rivojlanish bosqichlari. tadbirkorlik faoliyatini mazmuni va rivojlanish shart-sharoitlari, tadbirkorlikning tashkiliy

shakllari, tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishda marketing va menedjment asosida tadbirkorlikni boshgaruv tizimi ekanligi.

11-mavzu: Korxona (firma) harajatlari va foydasi

Ishlab chiqarish harajatlarini tadqiq etishdagi yondashuvlar. Ijtimoiy ishlab chiqarish harajatlari. Korxona ishlab chiqarish harajatlari. Ishlab chiqarish harajatlarining mazmuni, tarkibi va turlari. Bevosita ishlab chiqarish harajatlari va muomala harajatlari. Ichki va tashqi harajatlar. Me'yordagi foyda. Doimiy va o'zgaruvchi harajatlar. Doimiy, o'zgaruvchi va umumiy (yalpi) harajatlarning grafikdagi tasviri. O'rtacha va umumiy harajatlar. O'rtacha harajatlarning egri chiziqlari. So'nggi qo'shilgan harajatlar tushunchasi. Harajatlarni minimallashtirish qoidasi: $MP_L / P_L = MP_A / P_A = MP_{\text{har qanday omil}} / P_{\text{har qanday omil}}$

12-mavzu: Ish haqi va mehnat munosabatlari

Yaratilgan mahsulot va daromadlarning taqsimlanish tamoyillari, ish haqining iqtisodiy mazmuni, ish haqini tashkil etish shakllari va tizimlari, mehnat munosabatlarining iqtisodiy mazmuni va kasabauyushmalarining roli.

13-mavzu: Agrar munosabatlar va agrobiznes

Agrosanoat kompleksini tashkil topishi va tuzilishi, agrar munosabatlar va ularning bozor tizimidagi xususiyatlari, qishloq xo'jaligida takror ishlab chiqarishning o'ziga hos hususiyatlari, yer rentasi yerdan olingan daromad ekanligi, yer resurslari bozori va yer rentasi. Yerning bahosi, O'zbekiston respublikasida yangicha agrar munosabatlarni takomillashtirish.

14-mavzu: Milliy iqtisodiyot va uning asosiy makroiqtisodiy o'lchamlari. Yalpi ichki mahsulot va uning harakat shakllari

O'zbekiston respublikasi mustaqilligining e'lon qilinishi milliy iqtisodiyotni shakllanish va uning mazmuni, milliy iqtisodiyotda tenglik tushunchasi va uning iqtisodiy tarkibi, ijtimoiy takror ishlab chiqarish va milliy mahsulotning iqtisodiy tarkibi, yalpi milliy mahsulot ijtimoiy ishlab chiqarishning asosiy o'rsatkichi, sof milliy mahsulot, milliy daromad va milliy hisob tizimidagi boshqa iqtisodiy ko'rsatkichlar, baholar darajasi. nominal va real yalpi milliy mahsulot, sof iqtisodiy farovonlik va yalpi milliy mahsulot.

15-mavzu: Yalpi talab va yalpi taklif

Makroiqtisodiy muvozanat tushunchasi, jami talab va uning tarkibi, yalpi talab va uning taklifi, makroiqtisodiy tenglik nazariyalari, makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlash, iqtisodiyotni tartiblash muammolari.

16-mavzu: Iste'mol, jamg'arma va investitsiyalar

Bozor munosabatlari tizimida iste'mol va jamg'arma, ularning mazmuni va o'zaro bog'liqligi. Jamg'arishning mohiyati, omillari va

samaradorligi. Investitsiyalar va uning darajasini belgilovchi omillar. Jamg'arma va investitsiya o'rtasidagi nisbatni ta'minlash muammolari. O'zbekistonda investitsion faollikni oshirish yo'llari va shart-sharoitlari.

17-mavzu: Iqtisodiy taraqqiyot, iqtisodiy o'sish va milliy boylik

Iqtisodiy taraqqiyotning mazmuni va ko'rsatkichlari. Iqtisodiy o'sish nazariyalari, konsepsiyalari va modellari. Iqtisodiy o'sishning mazmuni, turlari va omillari. Raqamli iqtisodiyotga o'tish iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashningmuhim yo'nalishi. Milliy boylikning mazmuni va tarkibiy tuzilishi.

18-mavzu: Iqtisodiyotning siklliligi va makroiqtisodiy beqarorlik

Makroiqtisodiy beqarorlik va iqtisodiyotning siklliligi.Iqtisodiy sikl nazariyalari. Sikllarning asosiy turlari. Bozor iqtisodiyotida inqirozlar: mazmuni, kelib chiqish sabablari va turlari. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining kelib chiqish sabablari, salbiyoqibatlari va O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri.

II.II. Fan tarkibiga quyidagi seminar mavzulari kiradi:

1. "Iqtisodiyot nazariyasi" fanining predmeti va bilish usullari
2. Ishlab chiqarish jarayoni va uning natijalari
3. Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar va mulkchilik munosabatlari
4. Tovar-pul munosabatlari rivojlanishi bozor iqtisodiyoti shakllanishi va amal qilishining asosi
5. Bozor iqtisodiyotining mazmuni va amal qilinishi
6. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davri va uning O'zbekistondagi xususiyatlari
7. Talab va taklif nazariyasi. Bozor muvozanati
8. Raqobat va monopoliya
9. Narxning mohiyati va uni shakllanish xususiyatlari
10. Tadbirkorlik faoliyati. Tadbirkorlik kapitali va uning aylanishi
11. Korxona (firma) harajatlari va foydasi
12. Ish haqi va mehnat munosabatlari
13. Agrar munosabatlar va agrobiznes
14. Milliy iqtisodiyot va uning asosiy makroiqtisodiy o'lchamlari. Yalpi

ichki mahsulot va uning harakat shakllari

15. Yalpi talab va yalpi taklif

16. Iste'mol, jamg'arma va investitsiyalar

17. Iqtisodiy taraqqiyot, iqtisodiy o'sish va milliy boylik

18. Iqtisodiyotning sikllиligi va makroiqtisodiy beqarorlik

III. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:

1. Zamonaviy iqtisodiyot nazariyasi va rivojlanish bosqichlari

Bajarish tartibi: Iqtisodiyot nazariyasining shakllanishi va rivojlanish tarixini tahlil qilish. Zamonaviy yo'nalishlar (klassik, neoklassik, keynschilik, institutsionalizm va b.)ni solishtirish. Iqtisodiy o'sish modellari va iqtisodiy sikllarning asosiy nazariyalarini taqqoslash.

2. Mehnat bozori, ishchi kuchi va mehnat unumdorligi

Bajarish tartibi: Mehnat unumdorligi va uning iqtisodiy o'sishga ta'siri haqida ilmiy adabiyotlarni o'rganish. Yalpi ishchi kuchi va uni takror ishlab chiqarish jarayonini tahlil qilish. Ishsizlikning sabablari va shakllarini amaliy misollar orqali izohlash.

3. Mulkchilik, ishlab chiqarish xarajatlari va korxona foydasi

Bajarish tartibi: Mulkchilikshakllariningo'zgarishyo'llarinitahlilqilish. Ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish usullarini misollar bilan asoslash. Korxona foydasining taqsimlanishi va qayta investitsiya qilinish mexanizmini tahlil qilish.

4. Bozor iqtisodiyoti modellari va O'zbekistonga xos xususiyatlari

Bajarish tartibi: Bozor iqtisodiyotining turli modellari (liberal, ijtimoiy yo'naltirilgan, aralash)ni o'rganish. O'zbekistonda bozor iqtisodiyotining o'ziga xos yo'li va islohotlar strategiyasini tahlil qilish. Ijtimoiy yo'naltirilganlikning ahamiyatini amaliy misollar bilan ko'rsatish.

5. Bozor infratuzilmasi, raqobat va monopoliyalar

Bajarish tartibi: Bozor infratuzilmasining unsurlarini (bank, birja, sug'urta, kredit tashkilotlari) tahlil qilish. Raqobatning shakllari va usullarini amaliy

misollar bilan yoritish.

Monopoliyalarning faoliyati va davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini o'rganish.

6. Pul-kredit siyosati va milliy valyuta barqarorligi

Bajarish tartibi: O'zbekistonda milliy valyutaning muomalaga kiritilishi tarixini o'rganish. Pul-kredit siyosatining maqsadlari va vositalarini tahlil qilish. Inflatsiya va uning shakllarini misollar bilan ko'rsatish. Bank tizimini takomillashtirish yo'llarini baholash.

7. Soliq tizimi va davlatning ijtimoiy siyosati

Bajarish tartibi: Soliq tizimi va uning asosiy vazifalarini o'rganish. Davlatning ijtimoiy siyosati va aholini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlarini tahlil qilish. Bozor iqtisodiyoti sharoitida daromadlar tengsizligi muammosini baholash.

8. Aholi daromadlari va jamg'arma

Bajarish tartibi:Aholi daromadlarining mazmuni, manbalari va turlarini tahlil qilish. Jamg'arma tushunchasi va uning hajmiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish. Misollar asosida aholi daromadlari va jamg'arma o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilish.

9. Agrar sohada iqtisodiy islohotlar

Bajarish tartibi: O'zbekistonda agrar sohada amalga oshirilgan asosiy islohotlarni o'rganish.Yer munosabatlari, mulkchilik va fermer xo'jaliklarining rivojlanishini tahlil qilish. Agrar sohaning iqtisodiyotdagi o'rni va istiqbollarini baholash.

10. Milliy iqtisodiyot va hisoblar tizimi

Bajarish tartibi: Milliy iqtisodiyotning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarini o'rganish (YAIM, milliy daromad va h.k.). O'zbekistonda milliy hisoblar tizimi holatini va istiqbollarini tahlil qilish. Xalqaro standartlar bilan taqqoslash.

11. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro integratsiya

Bajarish tartibi: Jahon xo'jaligining shakllanish va rivojlanish bosqichlarini o'rganish. Xalqaro iqtisodiy integratsiya turlari va shakllarini tahlil qilish.

	Global iqtisodiy muammolar (energiya, ekologiya, demografiya va b.)ni izohlash. 12. Tashqi savdo, proteksionizm va to‘lov balansi Bajarish tartibi: Erkin savdo va proteksionizm siyosatini taqqoslash. O‘zbekiston tashqi savdo munosabatlarining sifat jihatidan o‘zgarishini tahlil qilish. To‘lov balansining tarkibi va mohiyatini o‘rganish. Mustaqil o‘zlashtiriladigan mavzular kafedra tomonidan tayyorlangan uslubiy ko‘rsatma asosida bajariladi.
3	**IV. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba: • “Iqtisodiyot nazariyasi” fanining vujudga kelishi va uning rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari haqida hamda ularning asosiy g‘oyalari to‘g‘risida yaxshi tasavvurga yega bo‘lishi kerak. Iqtisodiy hodisalar va jarayonlarning o‘zaro aloqa va bog‘liqligini, resurslarning cheklanganligini va aholi farovonligini oshirish maqsadida ulardan muqobil foydalanish usullarini bilishi lozim.**(bilim)** • iqtisodiy bilimlarning nazariy asoslarini, iqtisodiyotning asosiy tushunchalari va kategoriyalarini, iqtisodiy qonunlar va tamoyilllarini o‘rgatish hamda ularni amalda tadbiq yetish ko‘nikmasini hosil qilishning nazariy va amaliy tomonlarini o‘rganishga yo‘naltirish bo‘yicha nazariy bilimlarga ega bo‘lishi; **(ko‘nikma)** • iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tahlil qilish usularini qo‘llash; iqtisodiy qonunlarni, ilmiy tushunchalar (kategoriyalar)ni, iqtisodiy muammolar bo‘yicha yechimlar qabul qilish ***ko‘nikmalariga ega bo‘lishi.*** **(malaka)**
4	**V. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:** • ma’ruzalar; •interfaol keys-stadilar; •seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); •guruhlarda ishlash; •taqdimotlarni qilish; •individual loyilalar; •loyiha tahlili;

	•misol va masalalar; •jamoa bo‘lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5	**VI. Kreditlarni olish uchun talablar:** Dars davomida faol qatnashish, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazoratni muvaffaqiyatli topshirish.
6	**Asosiy adabiyotlar** 1. A.Qodirov, P.Z.Xashimov, N.G.Muminov, N.Y.Ortiqov, X.X.Rejapov “Iqtisodiyot nazariyasi”. Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik. I-qism. Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti, Toshkent, “GRAND KONDOR PRINT” 2023. 476 bet 2. Xodiyev B.Y., Shodmonov Sh.Sh. Iqtisodiyot nazariyasi.Darslik. – T.: Barkamol fayz media, 2017. 3. O‘lmasov A., Vahobov A.V. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – T.: “Iqtisod- moliya”, 2014. – 480 bet. 4. Muxammedov M.M. va boshqalar Iqtisodiyot nazariyasi.Darslik. – T.: Fan va texnologiya, 2022. 5. Мухаммедов М.М, Камилова Н.А. Экономическая теория. Учебник для бакалавров.Fan va texnologiya nashriyoti, 2023.-624 6. Xajiyev B.D., Mamaraximov B.E., Mambetjanov Q.Q. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik (rus tilida). – T.: “Iqtisodiyot”, 2019. – 548 bet. **Qo‘shimcha adabiyotlar** 7. Экономическая теория: Учебник для бакалавров/Под общ. ред. А.А.Кочеткова.5-изд. Перераб. и доп.- М.: издательско-торговая корпорация “Дашков и К”, 2014.-696 стр. 8. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – T.: O‘zbekiston, 2023.–120 b. 9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni. www.lex.uz 10. O‘zbeksiton Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi “O‘zbekiston–2030” strategiyasini 2023 yilda sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-300sonli Qarori. / Xalq so‘zi, 2023 yil 12 sentyabr, №190 11. Бурганов Р.А., Экономическая теория.Учебник. – Москва.: “Инфра-М”, 2016. – 562 стр.

	Axborot manbaalari 12.www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi xukumat portali. 13. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 14. www.ziyonet.uz – ta’lim portali 15.www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasi sayti 16.www.mineconomy.uz - O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi sayti 17. https://www.economics.harvard.edu/concentrator-guide#economic-history 18. https://ocw.mit.edu/courses/14-01sc-principles-of-microeconomics-fall-2011/pages/syllabus/?utm_source
7	Samarqand davlat chet tillar instituti tomonidan ishlab chiqilgan va institut Kengashining 2025-yil “29” 08 dagi “1”-sonli bayoni bilan tasdiqlangan.
8	**Fan/modul uchun mas’ullar:** R. Pardayev - SamDCHTI, “Tarjima nazariyasi va amaliyoti” kafedrasi PhD, assistento‘qituvchisi.
9	**Taqrizchilar:** **F.R. Xalimova** – SamDChTI, Tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasi v.b. professori, DSc. **A.B.Shakarov**– SamISI “Iqtisodiyot nazariyasi” kafedrasi dotsenti

p